



INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2025



+998335668868



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

Google Scholar



zenodo

OpenAIRE



**YANGI RENESSANS**

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

**2025**

**2-JILD 3-SON**



**YANGI RENESSANS**

**RESPUBLIKA ILMIY JURNALI  
TO'PLAMI**

**2 - JILD, 3 - SON**

**2025**



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

**O'ZBEKISTON-2025**





## **TEXNIKANING PAYDO BO'LISHI VA BUGUNGI KUNGA QADAR RIVOJLANISHI**

**Qayumjonova Shahzoda Qosimjom qizi**

Farg'ona davlat texnika universiteti ATT fakultetining 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola texnikaning insoniyat tarixidagi kelib chiqishi va hozirgi jamiyatdagi o'rnini tahlil qiladi. Maqolada texnikaning dastlab qayerda va qachon yaratilgani, texnik tizimlarda zamonaviy dasturlash texnologiyalari ma'lumot berilgan. Shuningdek, dasturlash tillarini rivojlanish darajasiga ko'ra bir nechta davrlari, elektronika va raqamli texnologiyalarning texnik taraqqiyotdagi ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda texnika ta'lim, tibbiyot, sanoat, transport va axborot texnologiyalari sohalarida qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** texnika tarixi, texnologiya rivoji, sanoat inqilobi, raqamli texnologiyalar, tibbiy texnika, ta'lim texnologiyalari, ishlab chiqarish, transport.

Texnika insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri. U dastlab oddiy mehnat qurollari sifatida paydo bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan murakkab qurilmalar, mashinalar va zamonaviy raqamli texnologiyalar shaklida rivojlanadi. Texnikaning tarixini aniq va ishonchli manbalar asosida o'rganish, uning jamiyat hayotiga ta'sirini anglashga yordam beradi.

Texnika tarixi insoniyatning eng qadimiy davrlaridan-oddiy tosh qurollar paydo bo'lgan paytdan boshlanadi. Ilk tosh qurollar taxminan 2.6 million yil avval Sharqiy Afrikada ishlatilgan. [1]. Dasturlashtirilgan hisoblash mashinalari yaratilganidan beri insoniyat sakkiz mingdan ziyod dasturlash tillarini ishlab chiqqan. Har yili ularning soni ortib bormoqda. Ba'zi tillar o'zlarining oz sonli foydalanuvchilari tomonidan ishlatilishi mumkin, boshqa dasturlash tillari esa millionlab foydalanuvchilar tomonidan dasturiy ilovalar yaratish uchun foydalaniladi. Dasturlash tillarining rivojlanish darajasiga ko'ra davrlari;

Birinchi davr tillari 50-yillargacha bo'lgan davr, birinchi kompyuterlar paydo bo'lgan vaqtda yoritilgan. Ularga misol qilib, Assembler tilini olish mumkin.

Ikkinchi davr tillari 50-60-yillarga to'g'ri keladi. Bu vaqtda Assemblerning yangi ko'rinishi yaratildi. Ushbu tildan foydalanish tufayli dasturlarning bajarish tezligi va ishonchliligi oshdi.

Uchinchi davr-60-yillarda yuqori darajali universal tillar paydo bo'la boshladi. Ular yordamida turli sohadagi masalalarni yechish imkoniyati ko'paydi. Bu tillarning mukammal konstruksiyalari, soddaligi, kompyuter turiga bog'liq bo'lmaganligi dasturchilarning ish unumdorligini oshirdi. Bu tillarning ko'pchiligi hozirgi kunda ham ishlatiladi.

70-yillar to'rtinchi davr tillarining yaratilishi davri deb hisoblanadi. Ushbu tillar yirik loyihalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular asosan muayyan sohadagi masalalarni yechish uchun qulaydur. Dasturlarda muammoga





yo'naltirilgan til vositalari yordamida vazifalar bajariladi ,ya'ni bitta funksiya orqali amallar ifodalanadi.

1949-yilda Jon Mouchli yuqori darajali dasturlash tillarining dastlabgilariga asos bo'lgan Short Code sistemasini ishlab chiqdi .1951-yilda Greys Xopper birinchi bo'lib A-O kompilyatorini yaratdi.

1954-yilda FORTRAN(FORMula TRANslation) tili yaratildi .Bu dastur IBM kompaniyasida Djon Bekusa boshchiligida yaratilgan .Fortran,

Bugungi kunda texnikaning qo'llanilishi[2]

1.Ta'lim sohasida :Kompyuter,planshet ,intereaktiv doska ,onlayn platformalar orqali dars sifati oshmoqda .Sun'iy intellekt va simulyatorlar orqali amaliy o'quv jarayoni kuchaymoqda .[3]

2.Tibbiyotda : Raqamli diagnostika (MRI,KT,UZI) kasaliklarni erta aniqlaydi .Robotlashtirilgan jarrohlik,telemeditsina va sun'iy intellekt asosida tashxis qo'yish kengaymoqda .[4]

3.Sanoatda :Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari mahsulot sifati va unumdorlikni oshiradi.Robotlar ,sensorlar va IoT qurilmalari ishlab chiqarishni doimiy nazorat qiladi .[5]

4.Transportda :Elektr va gibrid avtomobillar ,aqlli svetoforlar ,GPS navigatsiya xavfsizlikni oshiradi .Dronlar va logistika robotlari yuk tashishni tezlashtirmoqda .[6]

5.Biznes va kundalik hayotda:Onlayn bank ,elektron savdo,ma'lumotlarni boshqarish tizimlari ishlarni tez va oson qiladi.[7]

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [1].Taylor,t.,&Dorin,A(2018) <https://arxiv.org/abs/1806.01322>
2. [2].M.M.Kadirov .Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari darsligi 2-qism 5-6-7-8-9-betlari.
3. [3].YUNESCO.ICT in Education:A Global Review.2020.
4. [4].WHO.Digital Health Guidelines.2019.
5. [5].Evans&Lindsay.The Management and Control of Quality.2017.
6. [6].International Transport Forum.Transport Outlook 2023.
7. [7].Abdullayev Z,S.,Mirzayev S.S.,Shodmonova G.,Shamsiddinov N.B.Informatika va axborot texnologiyalari.Toshkent:2012.

